

FIRMA NOMIGA BO'LGAN HUQUQLARNI AMALGA OSHIRISHNING SHARTNOMAVIY-HUQUQIY ASOSLARI

Shokirova-Inomjonova Mashhura G'ayratjon qizi
Toshkent davlat yuridik universiteti magistri

Har bir huquqiy jarayonning huquqiy asosi bo'lishi amaliyotda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan tushunmovchiliklarni oldini olishga xizmat qiladi. Firma nomiga bo'lgan huquqlarni amalga oshirish ham taraflar o'rtasida tuzilgan shartnoma orqali mustahkamlanadi va tartibga solinadi. Ushbu jarayonda taraflar sifatida firma nomidan foydalanish huquqini berayotgan yuridik shaxs litsenziar, ushbu huquqlarni qabul qilib olayotgan boshqa yuridik shaxs esa litsenziat sifatida huquqiy maydonga chiqadi. Demak, firma nomidan foydalanish huquqini berish litsenziya shartnomasi yoki kompleks tadbirkorlik shartnomasi asosida ruxsat berilishi mumkin.

Litsenziya shartnomasi tuzish tartibi va uning muhim xususiyatli xususida O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 1036-moddasida tegishli tushuntirishlar berib o'tilgan. Unga ko'ra litsenziya shartnomasi bo'yicha xususiy alomatlar aks ettiruvchi vositaga nisbatan mutlaq huquqqa ega bo'lgan shaxs ikkinchi tarafga individuallashtirish vositasidan foydalanishga ruxsat berish to'g'risidagi kelishuvi sanaladi. Qayd etish joizki, ushbu turdagi shartnomada ham qanday huquqlar berilayotganligi ya'ni berilayotgan huquqlar hajmi va qancha muddatga foydalanishga ruxsat berilayotganligi masalasining qayd etilishi shartnomaning zaruriy sharti hisoblanadi. Demak, litsenziya shartnomasida litsenziar tomonidan quyidagi huquqlarni berish nazarda tutilishi mumkin:

- litsenziarning intellektual mulk obyektidan foydalanish va shu bilan birgalikda boshqa shaxsga xuddi shunday turdagi litsenziya berish huquqini saqlab qolgan holda foydalanishga bo'lgan huquq ya'ni oddiy nomutlaq litsenziya shartnomasi;

- litsenziarning intellektual mulk obyektidan foydalanish huquqi saqlanib qolgan ammo boshqa shaxsga litsenziya berish huquqi mavjud bo'lmagan holda foydalanish huquqi berish va bu mutlaq litsenziya shartnomasi deyiladi.

E'tibor qaratilishi kerak bo'lgan jihat shundaki, litsenziya shartnomasi albatta yozma shaklda tuzilishi kerak va shu bilan bir qatorda vakolatli davlat organida ro'yxatdan o'tkazilishi kerak. Demak, litsenziya shartnomasining belgilangan yozma shakliga va uni ro'yxatdan o'tkazmaslik shartnomaning o'z-o'zidan haqiqiy emasligiga olib keladi.

Keyingi shartnoma turi bu kompleks tadbirkorlik litsenziyasi shartnomasi bo'lib, u shuningdek franshizing deb ham ataladi. Ushbu shartnoma turida taraf sifatida intellektual mulk obyektidan foydalanish huquqini berayotgan shaxs – kompleks litsenziar, ikkinchi taraf sifatida esa ushbu huquqlarni qabul qilib olayotgan shaxs – kompleks litsenziat ishtirok etadi⁸. Kompleks tadbirkorlik litsenziyasi shartnomasida kompleks litsenziat kompleks litsenziardan quyidagilarni haq evaziga olish huquqiga ega bo'ladi:

- firma nomidan;
- qo'riqlanadigan tijorat axborotidan;
- kompleks litsenziarning faoliyat sohasidagi obro'sidan;
- tijorat faoliyatidagi tajribasidan (shartnomada foydalanishning minimal yoki maksimal hajmi belgilab qo'yilgan bo'lishi mumkin);
- tovar belgisi, ixtiro, xizmat ko'rsatish belgisi kabi shartnomada belgilab qo'yilgan mutlaq huquqlarga kiruvchi obyektlardan foydalanish huquqini o'z ichiga olgan huquqlar majmuasini olish. Shuningdek, franshizing shartnomasida litsenziat tomonidan litsenziarning tovorlarini sotish, savdo qilish, xizmat ko'rsatish va boshqa bir qator ishlarni bajarish huquqi va ushbu huquqlar kompleksida foydalanishdagi hudud doirasi ham ko'rsatib o'tilishi mumkin. Litsenziya shartnomasidan farqli ravishda kompleks tadbirkorlik litsenziyasi shartnomasida muddati ko'rsatilmaslgi ya'ni muddatsiz bo'lishi ham mumkin.

Kompleks tadbirkorlik litsenziyasi shartnomasida quyidagicha mutlaq shartlar nazarda tutilishi mumkin bo'lib, ular quyidagilarda o'z aksini topadi:

Birinchidan, litsenziar litsenziat uchun biriktirib qo'ygan hududida kompleks tadbirkorlik litsenziyasidan foydalanish uchun boshqa shaxslarga bermaslik;

Ikkinchidan, litsenziar litsenziatga biriktirilgan hudduda u bilan raqobatlashmasligi;

Uchinchidan, litsenziat litsenziarning raqobatchilaridan kompleks tadbirkorlik litsenziyasini olmasligi;

To'rtinchidan, litsenziat o'z faoliyatini amalga oshirayotgan tijorat binosi joylashadigan hududni, binoning ichki va tashqi ko'rinishini litsenziar bilan birgalikda kelishishi lozimligi to'g'risidagi qoida belgilab qo'yilishi mumkin.

Firma nomidan tijorat munosabatlarida foydalanish xususida gap ketganda tijorat maqsadida huquqiy muhifaza qilinayotgan xususiy alomatlarini aks ettiruvchi vositalardan emas, balki shu individallashtirish vositalariga bo'lgan mulkiy huquqlardan foydalaniladi. Ammo, qayd etish joizki, ayrim intellektual mulk obyektlarining tijorat munosabatlaridagi harakati qonunchilik hujjatlari bilan cheklanishi mumkin. Buning yaqqol

⁸ Fuqarolik huquqi. Ikkinchi qism. –T.: Ilm-ziyo, 2008. 676-b.

misoli sifatida firma nomlarini keltirib o'tish mumkin. O'zbekiston Respublikasining "Firma nomlari to'g'risida"gi qonuning 8-moddasida yuridik shaxs (litsenziar) o'z firma nomidan foydalanish uchun boshqa yuridik shaxsga (litsenziatga) qonunchilikka muvofiq ular o'rtasida tuzilgan litsenziya shartnomasi yoki kompleks tadbirkorlik litsenziyasi shartnomasi asosida ruxsat berishi mumkinligi haqidagi qoida mustahkamlab qo'yilgan⁹. Ammo, bir firma nomining boshqa shaxsga o'tishiga faqat quyidagi ikki holatda yo'l qo'yiladi:

- 1) yuridik shaxs qo'shib yuborish, qo'shib olish, bo'lish va ajratib chiqarish yo'li bilan qayta tashkil etilgan;
- 2) butun korxonada mulkiy majmua sifatida sotilganda.

"Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonunning 5-moddasida ishlab chiqaruvchi o'z korxonasining nomi va joylashgan (yuridik) manzili haqida iste'molchini xabardor qilishi shartligi haqidagi qoida belgilab qo'yilgan. Bunday ma'lumot ishlab chiqarish markasi yoki tovar belgisida ko'rsatilgan bo'lishi yoxud boshqa usulda taqdim etilishi lozim. Bundan tashqari sotuvchi ya'ni tovar ishlab chiqaruvchi shaxs o'z tashkilotining firma nomidan xabardor qilishi shart.

Yuridik shaxs o'z firma nomidan tovar yoki xizmat belgisi ko'rinishida foydalanish huquqiga ega bo'lib, ammo bu majburiyat hisoblanmaydi. Bunday holatda tovar belgisiga kiritilgan firma nomi uning bir elementi, tarkibiy qismi yoki ilova ko'rinishidagi element sifatida gavydalanadi va bunday holatda tovar belgisining tarkibiy qismi bo'lgan firma nomi vakolatli davlat organi tomonidan tasdiqlanishi darkor.

Firma nomiga nisbatan mutlaq huquqning O'zbekiston hududida e'tirofi etilishi, muhofazasi va himoya qilinishining zaruriy sharti bu uning vakolatli davlat organlarida ro'yxatdan o'tkazilganlik fakti hisoblanib, bu haqidagi dalolatnoma buning tasdig'i bo'lib xizmat qiladi. Demak, firma nomining ro'yxatdan o'tkazilishi unga bo'lgan mutlaq huquqning tan olinishiga sabab bo'ladi.

Shu o'rinda xorijda ro'yxatga olingan va umume'tirof etilgan firma nomlari (masalan, Iphone, Gefest)ga nisbatan mutlaq huquqlar O'zbekiston hududida quyidagi vaziyatlarda amal qiladi:

- bu to'g'risida O'zbekiston xalqaro konvensiya, bitim va boshqa turdagi hujjatlarga qo'shilgan bo'lsa;

- bu xususida O'zbekiston boshqa chet el davlatlari bilan ikki tomonlama va ko'p tomonlama shartnoma va bitimlarda so'z yuritilgan bo'lsa¹⁰.

⁹ O'zbekiston Respublikasining «Firma nomlari to'g'risida»gi qonuni 18.09.2006 yildagi O'RQ-51-son

¹⁰ Intellektual mulk. Darslik. Mualliflar jamoasi. –T.: TDYU nashriyoti, 2019. 445-bet.

REFERENCES:

1. Intellektual mulk. Darslik. Mualliflar jamoasi. –T.: TDYU nashriyoti, 2019. 445-bet.
2. O‘zbekiston Respublikasining «Firma nomlari to‘g‘risida”gi qonuni 18.09.2006 yildagi O‘RQ-51-son
3. Fuqarolik huquqi. Ikkinchi qism. –T.: Ilm-ziyo, 2008. 676-b.
4. O.Oqyulov. Intellektual mulk huquqi. I.M.Mo‘minov nomidagi Falsafa va huquq instituti. Toshkent, 2005 yil, 12-b
5. Rustambekov I, Nuridullayev A. Xorijiy mamlakatlar intellektual mulk huquqi. O‘quv qo‘llanma. – T.: 2011. 48-b